



NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING SOLIQ AMALIYOTLARI TAHLILI

Xasanov Jahongir Botir o'g'li

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi bosh hisobchisi

E-mail: 903202221@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8153286>

Annotatsiya. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yuritishda davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Bu eng avvalo, NNTlarining mustaqilligi va ular faoliyatiga davlat organlarining aralashmasligi prinsipidan kelib chiqadigan jarayon sanaladi.

Kalit so'zlar: fuqarolar, yuridik shaxslar, nodavlat notijorat tashkilotlar, iqtisodiyot.


Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yuritishda davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Bu eng avvalo, NNTlarining mustaqilligi va ular faoliyatiga davlat organlarining aralashmasligi prinsipidan kelib chiqadigan jarayon sanaladi.

Shunga qaramasdan, NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishning ikki asosiy modeli shakllanganligini qayd etish zarur: birinchi model bu aksariyat MDH davlatlarida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish va ularning davlat boshqaruv organlari oldida hisobdorligi tendensiyasi kuzatiladi [1]; ikkinchi model xususiyatlarini rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasida kuzatish mumkin. Unga ko'ra nodavlat notijorat tashkilotlarida o'zini o'zi nazorat qilish va keng jamoat-chilikka hisobdorlik tartibi o'rnatilgan. Istisnolar xorijiy agentlar va xorijiy moliyaviy manbalarga taalluqli hisoblanadi [2. b. 103–108].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 74-moddasida jamoat birlashmalari tushunchasi ishlatilgan bo'lib, unga ko'ra "ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari jamoat birlashmalari hisoblanadi"[3].

Lekin, Fuqarolik kodeksida ham nodavlat notijorat tashkilotlari tushunchasi haqida hech qanday norma mavjud emas. Ushbu kodeksning 75-moddasi-dagina "fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoli bo'lmagan nodavlatnotijorattashkiloti jamoat fondi debe'tirof etiladi"[3], degan goida mavjud. Ushbu normada jamoat fondi nodavlat notijorat tashkilotning bir





shakli sifatida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 58-moddasida notijorat tashkilotlar tushunchasiga soliq qonunchiligi nuqtai nazaridan ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra qonun hujjatlarida notijorat tashkilot uchun belgilangan shaklda ro'yxatdan o'tkazilgan, quyidagi shartlarga muvofiq bo'lgan yuridik shaxs ushbu Kodeks maqsadida notijorat tashkilot deb e'tirof etiladi, agar: daromad olish maqsadiga ega bo'lmasa; daromadlarni yoki mol-mulkni ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamasa[3]. Ushbu norma notijorat tashkilotlar faoliyatini iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratadi.

Lekin, amaldagi Soliq kodeksida ham "notijorat tashkilotlar" tushunchasidan foydalangan, uning uchta moddasida 48, 339, 378-moddalarida nodavlat notijorat tashkilotlari ko'rsatilgan bo'lsa, boshqa barcha o'ttizdan ortiq normalarda notijorat tashkilot terminidan foydalanilgan[3].

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini nazorat qilishni nazariy jihatdan ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchisi, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini o'zini o'zi nazorat qilishi tizimi, ikkinchisi, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish tizimi.


Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning turli shakllari mavjud. Qayd etishimiz kerakki, nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish tartiblari ham ular faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning bir ko'rishini hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002 yil 27 dekabrda 140-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1209, 2003 yil 24 yanvar) bilan tasdiqlangan hisobot shakllarga e'tibor beradigan bo'lsak, mazkur hisobot shakli 5 ta murakkab jadvallardan iborat bo'lib, undagi ma'lumotlarning hammasi ham keng jamoatchilik uchun fond faoliyatini nazorat qilishda muhim axborot bo'lib hisoblanmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fondlar tomonidan ushbu qonun talabi deyarli bajarilmayapti.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun moliyaviy hisobot yilning har choragida soliq va statistika organlariga hisobot taqdim etishning murakkab tartibi belgilangan.

Fikrimizcha, fond tomonidan hisobotlarni e'lon qilishda kelib tushgan pul mablag'lari va mol-mulk hamda ulardan foydalanish, shuningdek uning ustavi va rahbar organlaridagi o'zgarishlar to'g'risida hisobot elektron platformada e'lon qilish bilan chegaralanish maqsadga muvofiq.

Qonun hujjatlarida nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yishning oqibatlari to'liq yoritilmagan. O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat





notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasida aks etgan nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish oqibatlari mavxum va gohida bir talab ikkinchi talabni inkor qiladi.

Xususan, qonunning yuqoridagi moddasiga ko'ra, faoliyati to'xtatib qo'yilgan nodavlat notijorat tashkilotiga bank omonatlaridan foydalanish taqiqlansada, uning quyida xo'jalik faoliyati, mehnat shartnomalari, o'z harakatlari (harakat-sizligi) oqibatida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash va jarimalar to'lashga doir xarajatlar bundan mustasno ekanligi qayd qilingan.

XULOSA VA MUNOZARA

Aksariyat davlatlarda "uchinchi sektor"ga ijtimoiy foydali maqomini soliq organlari taqdim etadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mazkur maqomni taqdim etishda qonunchilikda tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakllariga e'tibor qaratmaydi. Daniya, Finlyandiya, Germaniya, Irlandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shvesiya mazkur tartib asosida ish yuritadi. Daniyada soliq organlari har yil yakuniga ko'ra qaysi tashkilotni ijtimoiy foydali maqomiga ega tashkilotlar keng jamoatchilikka e'lon qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Gorny M. B. Notijorat tashkilotlar va hokimiyat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar: qonunchilikning qiyosiy tahlili // Ijtimoiy siyosat tadqiqotlari jurnali. - 2011. - T. 9. - Yo'q. 2.
2. Agishev R.A. Rossiya va AQShda xorijiy agentlar to'g'risidagi qonun hujjatlari: qiyosiy huquqiy xususiyatlar // Terrorizm va inson huquqlari: globallasuv davridagi yangi muammolar. – 2019 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2016 y., 2-songa ilova.
4. E.A. Zlobina, Medvedev A.V. Jinoiy jazolarni ijro etish va jazoni o'tagan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirishda davlat organlari va diniy birlashmalarning o'zaro hamkorligining amaliy jihatlari. Rossiya kooperatsiya universitetining axborotnomasi, (1 (39)). 2020.
5. Nazarov Sh.N. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat tashkilotlarining roli (nazariy va huquqiy masalalar): Avtoref.dis. ... yurid.fan nom.. – Toshkent, 2019.-B.17.
6. Jo'raeva S. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2019. – № 4. –B.24.

